



GOETHE-ZERTIFIKAT A2

UND

GOETHE-ZERTIFIKAT A2 FIT IN DEUTSCH

DURCHFÜHRUNGSBESTIMMUNGEN IMTIHON O'TKAZISH QOIDALARI

Stand: 1. September 2023

Tahrir: 1 sentabr 2023 y

Zertifiziert durch
Sertifikat bergan tashkilot



**GOETHE
INSTITUT**

Sprache. Kultur. Deutschland.

Durchführungsbestimmungen zu den Prüfungen GOETHE-ZERTIFIKAT A2 und GOETHE-ZERTIFIKAT A2 FIT IN DEUTSCH

Stand: 1. September 2023

Die *Durchführungsbestimmungen* zu den Prüfungen GOETHE-ZERTIFIKAT A2 für Erwachsene und GOETHE-ZERTIFIKAT A2 FIT IN DEUTSCH für Jugendliche sind Bestandteil der *Prüfungsordnung des Goethe-Instituts* in ihrer jeweils aktuellen Fassung.

Die *Durchführungsbestimmungen* beschreiben die Bestandteile der einzelnen Prüfungen und regeln die prüfungsspezifischen Bedingungen der Prüfungsorganisation, des Ablaufs und der Bewertung sowie die Berechnung der Prüfungsergebnisse.

Die Prüfungen GOETHE-ZERTIFIKAT A2 und GOETHE-ZERTIFIKAT A2 FIT IN DEUTSCH werden vom Goethe-Institut getragen. Sie werden an den in § 2 der *Prüfungsordnung* genannten Prüfungszentren weltweit nach einheitlichen Kriterien durchgeführt und bewertet.

Die Prüfungen dokumentieren die zweite Stufe – A2 – der im *Gemeinsamen europäischen Referenzrahmen für Sprachen (GER)* beschriebenen sechsstufigen Kompetenzskala und damit die Fähigkeit zur elementaren Sprachverwendung.

Die Prüfungen GOETHE-ZERTIFIKAT A2 und GOETHE-ZERTIFIKAT A2 FIT IN DEUTSCH haben das gleiche Format, die folgenden Paragraphen gelten gleichermaßen für beide Prüfungen.

§ 1 Prüfungsbeschreibung

Siehe hierzu auch *Prüfungsordnung* § 1.

1.1 Bestandteile der Prüfung

Die Prüfung besteht aus folgenden obligatorischen Teilprüfungen:

- schriftliche Prüfung,
- mündliche Prüfung.

Imtihon o'tkazish qoidalari GOETHE-ZERTIFIKAT A2 va GOETHE-ZERTIFIKAT A2: FIT IN DEUTSCH

Tahrir: 1 sentabr 2023 y.

Katta yoshdagilar uchun GOETHE-ZERTIFIKAT A2 va o'smir yoshdagilar uchun GOETHE-ZERTIFIKAT A2: FIT IN DEUTSCH *imtihonlarini o'tkazish qoidalari* Gyote-Institutining *Imtihon o'tkazish tartibining* amaldagi asosiy ajralmas qismi hisoblanadi.

Imtihon o'tkazish qoidalari o'tkaziladigan imtihonlarning tarkibiy qismlarini tavsiflaydi va har bir imtihonni tashkil etish, imtihon jarayoni va baholash, shuningdek imtihon natijalarini hisoblashning o'ziga xos shartlarini tartibga soladi.

GOETHE-ZERTIFIKAT A2 va GOETHE-ZERTIFIKAT A2: FIT IN DEUTSCH imtihonlari Gyote-Instituti tomonidan ishlab chiqilgan. Imtihonlar *Imtihon o'tkazish tartibining* § 2-bandida keltirilgan butun dunyo bo'ylab joylashgan imtihon markazlarida yagona mezonlarga muvofiq o'tkaziladi va baholanadi.

Imtihon, *Umumyevropa til bilish kompetensiyalarining* (GER) olti darajali shkalasi bo'yicha ikkinchi darajaga – A2 ga mos keladi. Gyote-Institutining ushbu sertifikati nemis tilida boshlang'ich darajada muloqot qila olish malakasi mavjudligini tasdiqlaydi.

GOETHE-ZERTIFIKAT A2 va GOETHE-ZERTIFIKAT A2: FIT IN DEUTSCH imtihonlari bir xil shaklga ega bo'lib, quyidagi paragraflar ikkala imtihonga ham teng qo'llaniladi.

§ 1 Imtihon tavsifi

Imtihon o'tkazish tartibining 1-§.ga e'tibor qiling.

1.1 Imtihonning tarkibiy qismi

Imtihon quyidagi zaruriy qismlardan iboratdir:

- yozma imtihon,
- og'zaki imtihon.

1.2 Prüfungsmaterialien

Die Prüfungsmaterialien bestehen aus *Kandidatenblättern* und dem *Antwortbogen* (*Lesen, Hören, Schreiben*), *Prüferblättern* und den Bögen *Schreiben – Bewertung, Sprechen – Bewertung, Schreiben – Ergebnis, Sprechen – Ergebnis* sowie einem Tonträger.

Die *Kandidatenblätter* enthalten die Aufgaben für die Prüfungsteilnehmenden:

- Texte und Aufgaben zum Prüfungsteil **LESEN** (Teil 1-4);
- Aufgaben zum Prüfungsteil **HÖREN** (Teil 1-4);
- Aufgaben zum Prüfungsteil **SCHREIBEN** (Teil 1 und 2).

Im Prüfungsteil **SPRECHEN** erhalten die Prüfungsteilnehmenden Aufgabenkarten (Teil 1-3).

In den *Antwortbogen* tragen die Prüfungsteilnehmenden ihre Lösungen bzw. ihren Text ein.

Die *Prüferblätter* enthalten

- die Lösungen zu den Prüfungsteilen **LESEN** und **HÖREN**;
- die Transkripte der Hörtexte;
- Bewertungskriterien **SCHREIBEN** und **SPRECHEN**;
- Leistungsbeispiele für das Niveau A2 für den Prüfungsteil **SCHREIBEN**;
- Hinweise zur Gesprächsführung und Moderation für den Prüfungsteil **SPRECHEN**.

In den *Antwortbogen* zu den Prüfungsteilen **LESEN**, **HÖREN**, **SCHREIBEN** und in die Bögen *Schreiben – Bewertung* und *Sprechen – Bewertung* tragen die Prüfenden ihre Bewertung ein. Die Bewertungen werden jeweils auf die Bögen *Schreiben – Ergebnis* und *Sprechen – Ergebnis* übertragen.

Der Tonträger enthält die Texte zum Prüfungsteil **HÖREN** sowie alle Anweisungen, Pausen und Übertragungszeiten.

1.2 Imtihon materiallari

Imtihon materiallari *imtihon topshiruvchining to'plami* va *javoblar varaqasi* (*Tinglash, O'qish* va *Yozma nutq* bo'yicha), shuningdek, *Imtihon oluvchining to'plami, Yozma nutq - baholash* va *Og'zaki nutq - baholash, Yozma nutq - natija* va *Og'zaki nutq - natija*, qaydnomalari, hamda audiomateriallarni o'z ichiga oladi.

Imtihon topshiruvchining to'plami imtihon modullari bo'yicha topshiriqlarni oz ichiga oladi:

- Imtihonning **O'QISH** qismining matnlar va topshiriqlari (1- va 4-qismlar);
- Imtihonning **TINGLASH** qismining topshiriqlari (1- va 4-qismlar);
- Imtihonning **YOZMA NUTQ** qismining topshiriqlari (1- va 2-qismlar).

Imtihonning **OG'ZAKI NUTQ** qismida imtihon topshiruvchilarga vazifali kartochkalar beriladi (1-3-qismlar).

Javoblar varaqasiga imtihon topshiruvchilar o'z javoblarini, matnlarini yozib boradilar.

Imtihon oluvchining to'plami o'z ichiga quyidagilarni oladi

- Imtihonning **O'QISH** va **TINGLASH** qismlarining to'g'ri javoblari;
- Audiomatnlarning transkripsiyalari;
- Imtihonning **YOZMA** va **OG'ZAKI NUTQ** qismlari uchun baholash mezonlari;
- Imtihonning **YOZMA NUTQ** qismi topshiriqlarni bajarish uchun A2 darajadagi misollar;
- Imtihonning **OG'ZAKI NUTQ** qismida suhbat olib borish va moderatorlik qilish uchun ko'rsatmalar.

Imtihonning **O'QISH**, **TINGLASH**, **YOZMA NUTQ** qismlarining *javoblar varaqasiga*, hamda *Yozma nutq - baholash* va *Og'zaki nutq - baholash* qaydnoma shakllariga imtihon oluvchilar baholarni kiritiladilar. Shuningdek, *Yozma nutq - natija* va *Og'zaki nutq - natija* qaydnomalariga ham baholar kiritiladi.

Audiomateriallar imtihonning **TINGLASH** qismi audiomatnlarini, hamda, ko'rsatmalar, topshiriqlar orasidagi tanaffuslar va javoblarni ko'chirish uchun ajratilgan vaqtni o'z ichiga oladi.

1.3 Prüfungssätze

Die Materialien zu den schriftlichen Prüfungsteilen sind jeweils in *Prüfungssätzen* zusammengefasst. Die Materialien zum Prüfungsteil SPRECHEN können mit den schriftlichen *Prüfungssätzen* beliebig kombiniert werden.

1.4 Zeitliche Organisation

Die schriftliche Prüfung findet in der Regel vor der mündlichen statt. Falls schriftliche und mündliche Prüfung nicht am selben Tag stattfinden, liegen zwischen schriftlicher und mündlicher Prüfung maximal 14 Tage.

Die schriftliche Prüfung dauert ohne Pausen insgesamt 90 Minuten:

Prüfungsteil	Dauer
LESEN	30 Minuten
HÖREN	ca. 30 Minuten
SCHREIBEN	30 Minuten
Gesamt	90 Minuten

Der Prüfungsteil SPRECHEN wird in der Regel als Paarprüfung durchgeführt, in Ausnahmefällen ist auch eine Einzelprüfung möglich. Die Paarprüfung dauert insgesamt 15 Minuten, die Einzelprüfung 10 Minuten. Es gibt keine Vorbereitungszeit.

Für Prüfungsteilnehmende mit spezifischem Bedarf können die angegebenen Zeiten verlängert werden. Einzelheiten sind in den *Ergänzungen zu den Durchführungsbestimmungen: Prüfungsteilnehmende mit spezifischem Bedarf* geregelt.

1.5 Protokoll über die Durchführung der Prüfung

Über die Durchführung der Prüfung wird ein Protokoll geführt, das besondere Vorkommnisse während der Prüfung festhält und mit den Prüfungsergebnissen archiviert wird.

§ 2 Die schriftliche Prüfung

Für die schriftliche Prüfung wird folgende Reihenfolge empfohlen: LESEN – HÖREN – SCHREIBEN. Aus organisatorischen Gründen kann die Reihenfolge der Prüfungsteile von den Prüfungszentren geändert werden.

1.3 Imtihon to'plamlari

Imtihonning yozma qismi uchun materiallar tegishli *Imtihon to'plamlariga* birlashtirilgan. Imtihonning OG'ZAKI NUTQ qismi uchun materiallar bir-biri bilan va yozma qism uchun *Imtihon to'plamlari* bilan erkin birlashtirilishi mumkin.

1.4 Vaqt taqsimoti

Yozma imtihon odatda og'zaki imtihondan oldin bo'lib o'tadi. Agar yozma va og'zaki imtihonlar bir kunda o'tkazilmasa, ular orasidagi interval 14 kundan oshmasligi kerak.

Yozma imtihon tanaffuslarsiz jami 90 daqiqa davom etadi:

Imtihon qismi	Davomiyligi
O'QISH	30 daqiqa
TINGLASH	30 daqiqagacha
YOZMA NUTQ	30 daqiqa
Jami	90 daqiqa

Imtihonning OG'ZAKI NUTQ qismi odatda ikki kishilik imtihon shaklida amalga oshiriladi, istisno hollarda, bir kishilik imtihon ham o'tkazilishi mumkin. Ikki kishilik imtihonning davomiyligi 15 daqiqa, bir kishilik imtihonda esa - 10 daqiqa. Topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish vaqti mavjud emas.

Alohida ehtiyojga ega imtihon topshiruvchilar uchun imtihon vaqti uzaytirilishi mumkin. Batafsil ma'lumot uchun: *Imtihon o'tkazish qoidalariga qo'shimcha: alohida ehtiyojga ega imtihon topshiruvchilar*.

1.5 Imtihon o'tkazish bayonnomasi

Imtihon o'tkazilishi yuzasidan bayonnoma tuziladi va unga imtihon jarayonida sodir bo'lgan maxsus holatlar kiritib boriladi. Bayonnoma imtihon natijalari qaydnomalari bilan birga saqlanadi.

§ 2 Yozma imtihon

Yozma imtihonni quyidagi tartibda o'tkazish tavsiya etiladi: O'QISH - TINGLASH – YOZMA NUTQ. Tashkiliy sabablarga ko'ra ushbu tartib imtihon markazi tomonidan o'zgartirilishi mumkin.

Zwischen den Prüfungsteilen ist keine Pause vorgesehen.

2.1 Vorbereitung

Vor dem Prüfungstermin bereitet der/die Prüfungsverantwortliche unter Beachtung der Geheimhaltung die Prüfungsmaterialien vor. Dazu gehört auch eine inhaltliche Überprüfung inklusive des Tonträgers.

2.2 Ablauf

Vor Beginn der Prüfung weisen sich alle Teilnehmenden aus. Die Aufsichtsperson gibt danach alle notwendigen organisatorischen Hinweise.

Vor Beginn der jeweiligen Prüfungsteile werden die entsprechenden *Kandidatenblätter* und der *Antwortbogen* ausgegeben. Die Teilnehmenden tragen alle erforderlichen Daten auf dem *Antwortbogen* ein; erst dann beginnt die eigentliche Prüfungszeit.

Die *Kandidatenblätter* zu den jeweiligen Prüfungsteilen werden ohne Kommentar ausgegeben; alle Aufgabenstellungen sind auf den *Kandidatenblättern* erklärt. Am Ende der schriftlichen Prüfung werden alle Unterlagen eingesammelt. Beginn und Ende der Prüfungszeit werden jeweils in geeigneter Form von der Aufsichtsperson mitgeteilt.

Für die schriftliche Prüfung gilt folgender Ablauf:

1. Die Prüfung beginnt in der Regel mit dem Prüfungsteil LESEN. Die Teilnehmenden markieren ihre Lösungen auf den *Kandidatenblättern* und übertragen sie am Ende auf den *Antwortbogen*. Für das Übertragen ihrer Lösungen planen die Teilnehmenden circa 3 Minuten innerhalb der Prüfungszeit ein.
2. Nach dem Prüfungsteil LESEN wird der Tonträger für den Prüfungsteil HÖREN von der Aufsichtsperson gestartet. Die Teilnehmenden markieren ihre Lösungen zunächst auf den *Kandidatenblättern* und übertragen sie am Ende auf den *Antwortbogen*. Für das Übertragen ihrer Lösungen auf den *Antwortbogen* stehen den Teilnehmenden circa 3 Minuten innerhalb der Prüfungszeit zur Verfügung.

Yozma imtixon qismlari orasida tanaffuslar ko'zda tutilmagan.

2.1 Tayyorgarlik

Imtixon boshlanishidan oldin imtihonni o'tkazish uchun mas'ul shaxs maxfiylik qoidalari rioya qilgan holda imtixon materiallarini tayyorlaydi. Tayyorgarlik jarayoniga materiallarning mazmunini, shuningdek, audiomateriallarni yana bir bor tekshirish ham kiradi.

2.2 Imtixon jarayoni

Imtixon boshlanishidan avval barcha ishtirokchilar o'z shaxsini tasdiqlashlari lozim. Imtixon nazoratchisi shundan so'ng tashkiliy masalalar bo'yicha zaruriy ko'rsatmalarni beradi.

Har bir imtixon qismi boshlanishidan oldin *Imtixon topshiruvuchining to'plami* va *Javoblar varaqasi* tarqatiladi. Imtixon topshiruvchilar kerakli ma'lumotlarni *Javoblar varaqasiga* kiritadilar va shundan so'ng imtihonning asosiy vaqti boshlanadi.

Imtixon topshiruvuchining to'plami tegishli imtixon moduli boshlanishidan oldin hech qanday izohlarsiz tarqatiladi; imtixon topshiriqlari bo'yicha barcha zaruriy izohlar *Imtixon topshiruvuchining to'plamida* berilgan. Imtixon moduli yakunida barcha imtixon materiallari yig'iladi. Imtihonning boshlanish va tugash vaqti imtixon nazoratchisi tomonidan kerakli shaklda e'lon qilinadi.

Yozma imtixon jarayoni quyidagicha bo'lib o'tadi:

1. Odatda imtixon imtihonning O'QISH qismi bilan boshlanadi. Imtixon topshiruvchilar o'z javoblarini *Imtixon topshiruvuchining to'plamiga* belgilab boradilar, imtixon moduli yakunida esa ular *Javoblar varaqasiga* ko'chiriladi. Bu jarayon uchun imtixon topshiruvchilarga umumiy imtixon vaqtidan taxminan 3 daqiqa ajratiladi.
2. Imtihonning O'QISH qismidan so'ng TINGLASH qismi uchun audio texnik vosita imtixon nazoratchisi tomonidan ishga tushiriladi. Imtixon topshiruvchilar o'z javoblarini *Imtixon topshiruvuchining to'plamiga* belgilab boradilar, imtixon moduli yakunida esa ular *Javoblar varaqasiga* ko'chiriladi. Bu jarayon uchun imtixon topshiruvchilarga umumiy imtixon vaqtidan taxminan 3 daqiqa ajratiladi.

3. Danach bearbeiten die Teilnehmenden den Prüfungsteil SCHREIBEN. Die Texte werden direkt auf dem *Antwortbogen* verfasst.

§ 3 Der Prüfungsteil SPRECHEN

Das Einführungsgespräch einschließlich Vorstellung der Prüfenden und des/der Teilnehmenden dauert circa eine Minute.

Teil 1 dauert circa 3 Minuten, Teil 2 circa 3 Minuten pro Teilnehmenden und Teil 3 circa 5 Minuten.

3.1 Organisation

Für die Prüfung steht ein geeigneter Raum zur Verfügung. Tisch- und Sitzordnung werden so gewählt, dass eine freundliche Prüfungsatmosphäre entsteht.

Vor der mündlichen Prüfung muss die Identität des/der Teilnehmenden zweifelsfrei festgestellt werden.

3.2 Vorbereitung

Es gibt keine Vorbereitungszeit. Die Teilnehmenden erhalten die Aufgabenstellung direkt in der Prüfung.

3.3 Ablauf

Der Prüfungsteil SPRECHEN wird von zwei Prüfenden durchgeführt.

Eine/-r der Prüfenden moderiert das Prüfungsgespräch. Beide Prüfenden bewerten die Prüfungsleistungen unabhängig voneinander.

Für den Prüfungsteil SPRECHEN gilt folgender Ablauf:

Zu Beginn begrüßen die Prüfenden die Teilnehmenden, stellen sich selbst kurz vor und fragen die Teilnehmenden nach ihrem Namen, ihrer Herkunft o.Ä. Vor Beginn jedes Prüfungsteiles erläutert der/die Moderierende die Aufgabenstellung und verdeutlicht diese in Teil 1 anhand eines Beispiels. Außerdem entscheidet er/sie, welche/-r Teilnehmende beginnt.

1. In Teil 1 formulieren die Teilnehmenden nacheinander anhand der Stichworte auf den Aufgabenkarten vier Fragen und beantworten die Fragen des Partners/der Partnerin.

3. Shundan so'ng imtihan topshiruvchilar imtihonning YOZMA NUTQ qismi topshiriqlarini bajaradilar. Matnlar to'g'ridan-to'g'ri *Javoblar varaqasiga* yoziladi.

§ 3 Imtihonning OG'ZAKI NUTQ qismi

Imtihan oluvchilar / topshiruvchilarning o'zini tanishtirish jarayonini o'z ichiga olgan kirish suhbat taxminan bir daqiqa davom etadi.

1-qism taxminan 3 daqiqa, 2-qism har bir ishtirokchi uchun taxminan 3 daqiqa, 3-qism taxminan 5 daqiqa davom etadi.

3.1 Tashkil etish

Imtihan o'tkazish uchun ajratilgan xonadagi stol va stullar, imtihan jarayoni uchun mos tarzda joylashtiriladi va shu tariqa imtihan topshirish uchun qulay muhit yaratiladi.

Og'zaki imtihan boshlanishidan oldin imtihan topshiruvchilarning shaxsi shubhasiz tasdiqlanishi kerak.

3.2 Tayyorgarlik

Imtihan vazifasiga tayyorgarlik ko'rish uchun maxsus vaqt ajratilmagan. Vazifa imtihan ishtirokchilariga to'g'ridan-to'g'ri imtihan jarayonida beriladi.

3.3 Imtihan jarayoni

Imtihonning OG'ZAKI NUTQ qismi 2 ta imtihan oluvchi mutaxassis tomonidan o'tkaziladi.

Imtihan oluvchilarning biri imtihan jarayonida moderatorlik qiladi. Har ikkala imtihan oluvchilar imtihan natijalarini mustaqil ravishda baholaydilar.

Imtihonning OG'ZAKI NUTQ qismi quyidagicha tashkil etiladi:

Dastlab imtihan oluvchilar imtihan topshiruvchilar bilan salomlashadilar va o'zlarini qisqacha tanishtiradilar, so'ngra imtihan topshiruvchilarning o'zlarini tanishtirishlarini so'raydilar. Har bir qism boshlanishidan oldin moderator topshiriqni tushuntiradi va 1- qismda misol keltiradi. Shuningdek, u kim birinchi bo'lib boshlashini ham belgilaydi.

1. 1-qismda ishtirokchilar navbatma-navbat topshiriq kartochkasidagi kalit so'zlar asosida to'rtta savol tuzadilar va sheriklarining savollariga javob beradilar.

2. In Teil 2 erzählt jede/-r Teilnehmende anhand der Stichworte auf der Aufgabenkarte etwas über sich und beantwortet am Ende eine oder zwei Fragen des/der Prüfenden dazu.
3. In Teil 3 planen die Teilnehmenden anhand von Aufgabenkarten etwas gemeinsam, indem sie Fragen stellen, Vorschläge machen und auf diese reagieren.

Am Ende der Prüfung werden alle Unterlagen eingesammelt.

§ 4 Bewertung schriftliche Prüfung

Die Bewertung der schriftlichen Prüfungsteile findet im Prüfungszentrum oder in ausgewiesenen Diensträumen statt. Die Bewertung erfolgt jeweils durch zwei unabhängig Bewertende. Bei der Bewertung werden nur auf dem *Antwortbogen* eingetragene Antworten berücksichtigt.

Die Ergebnisse aus der schriftlichen Prüfung werden nicht an die Prüfenden der mündlichen Prüfung weitergegeben.

4.1 LESEN

Im Prüfungsteil LESEN gibt es 20 Items. Jedes Item ist ein Messpunkt. Pro Messpunkt und Lösung werden entweder 1 Punkt oder 0 Punkte vergeben. Die addierten Messpunkte werden in den *Antwortbogen* eingetragen und von beiden Bewertenden mit Unterschrift gezeichnet.

Die Messpunkte werden auf 25 Ergebnispunkte umgerechnet. Dazu werden sie mit 1,25 multipliziert.

4.2 HÖREN

Im Prüfungsteil HÖREN gibt es 20 Items. Jedes Item ist ein Messpunkt. Pro Messpunkt und Lösung werden entweder 1 Punkt oder 0 Punkte vergeben. Die addierten Messpunkte werden in den *Antwortbogen* eingetragen und von beiden Bewertenden mit Unterschrift gezeichnet.

Die Messpunkte werden auf 25 Ergebnispunkte umgerechnet. Dazu werden sie mit 1,25 multipliziert.

2. 2-qismda har bir ishtirokchi topshiriq kartochkasidagi kalit so'zlar yordamida o'zini tanishtiradi va imtihon oluvchining bir yoki ikkita savoliga javob berish bilan yakunlanadi.
3. 3- qismda ishtirokchilar topshiriq kartochkalari yordamida savol berish, taklif kiritish va ularga javob berish orqali birgalikda reja tuzadilar.

Imtihon yakunida barcha materiallar to'planadi.

§ 4 Yozma imtihonni baholash

Imtihonning yozma qismini baholash imtihon markazida yoki maxsus ajratilgan xizmat xonalarida amalga oshiriladi. Baholash ikkita mustaqil baholovchi ekspert tomonidan amalga oshiriladi. Baholash jarayonida faqat *Javoblar varaqasiga* kiritilgan javoblar hisobga olinadi.

Yozma imtihon natijalari og'zaki imtihon oluvchilarga berilmaydi.

4.1 O'QISH

Imtihonning O'QISH qismida 20 ta savol (Item) mavjud. Har bir savol o'lchov birligini ifodalaydi. Har bir o'lchov birligi va yechim uchun 1 ball yoki 0 ball beriladi. Qo'shilgan ballar natijasi *Javoblar varaqasiga* kiritiladi va ikkala baholovchi tomonidan imzolanadi.

O'lchov birliklari soni 25 natija balliga aylantiriladi. Buning uchun ular 1,25 ga ko'paytiriladi.

4.2 TINGLASH

Imtihonning TINGLASH qismida 20 ta savol (Item) mavjud. Har bir savol o'lchov birligini ifodalaydi. Har bir o'lchov birligi va yechim uchun 1 ball yoki 0 ball beriladi. Qo'shilgan ballar natijasi *Javoblar varaqasiga* kiritiladi va ikkala baholovchi tomonidan imzolanadi.

O'lchov birliklari soni 25 natija balliga aylantiriladi. Buning uchun ular 1,25 ga ko'paytiriladi.

4.3 SCHREIBEN

Die Bewertung des Prüfungsteils SCHREIBEN erfolgt durch zwei voneinander unabhängig Bewertende nach festgelegten Bewertungskriterien, Bewertung 1 und Bewertung 2 (s. *Modellsatz*, Teil *Prüferblätter*). Es werden nur die auf dem Bogen *Schreiben – Bewertung* vorgegebenen Punktwerte für jedes der Kriterien vergeben; Zwischenwerte sind nicht zulässig. Die für die Vergabe der Punkte relevanten Fehlergriffe etc. können auf dem Bogen *Schreiben – Bewertung* notiert werden. Die vergebenen Messpunkte werden addiert und vom Bewertenden unter Angabe der jeweiligen Bewerbernummer mit Unterschrift gezeichnet.

Die jeweiligen Punktwerte von Bewertung 1 und Bewertung 2 werden auf den Bogen *Schreiben – Ergebnis* übertragen. Zur Ermittlung der Punktzahl Schreiben wird das arithmetische Mittel aus den beiden Bewertungen gezogen. Eine **Drittbewertung** (= Bewertung 3) erfolgt, wenn die vergebenen Punktzahlen für den Prüfungsteil SCHREIBEN der/des einen Bewertenden **unterhalb** der Bestehensgrenze und der/des anderen Bewertenden **oberhalb** der Bestehensgrenze liegen und dabei **das arithmetische Mittel** aus beiden Bewertungen **unter der Bestehensgrenze** von 12 Messpunkten liegt. Die Punkte werden auf dem Bogen *Schreiben – Ergebnis* eingetragen. Der Bogen *Schreiben – Ergebnis* wird als rechnerisch richtig gezeichnet und im Falle einer Drittbewertung von dem/der Drittbewertenden unterschrieben.

Im Prüfungsteil SCHREIBEN sind insgesamt maximal 20 Messpunkte erreichbar, die auf volle Punkte gerundet und mit dem Faktor 1,25 zu maximal 25 Ergebnispunkten multipliziert werden.

§ 5 Bewertung Prüfungsteil SPRECHEN

Die Teile 1 bis 3 des Prüfungsteils SPRECHEN werden von zwei Prüfenden getrennt bewertet.

Die Bewertung erfolgt nach festgelegten Bewertungskriterien (s. *Modellsatz*, Teil *Prüferblätter*). Es werden nur die auf dem Bogen *Sprechen – Ergebnis* vorgesehenen Punktwerte vergeben. Zwischenwerte sind nicht zulässig.

Im Prüfungsteil SPRECHEN sind maximal 25 Ergebnispunkte erreichbar. Es werden nur die auf dem Bogen *Sprechen – Bewertung* vorgesehenen Punktwerte für jedes der Kriterien vergeben.

Das Einführungsgespräch wird nicht bewertet.

4.3 YOZMA NUTQ

Imtihonning YOZMA NUTQ qismida ikkita mustaqil ekspert tomonidan belgilangan baholash mezonlariga ko'ra - 1-baholash va 2-baholash bo'yicha baholanadi (*Namunaviy imtihon variantlari* ning *Imtihon oluvchining to'plami* qismiga qarang). Mezonlarning har biri uchun faqat *Yozma nutq - baholash* qaydnomasida ko'rsatilgan ballar berilgan; oraliq ballarga ruxsat berilmaydi. *Yozma nutq - baholash* qaydnomasida ball qo'yish uchun muhim bo'lgan holatlar masalan xatolar va hokazolarni qayd etish mumkin. To'plangan ballar umumlashtiriladi va tegishli baholovchi mutaxassisning hos raqamini ko'rsatilgan holda imzolanadi.

1-baholash va 2-baholashning tegishli ballari *Yozma nutq - natija* qaydnomasiga o'tkaziladi. Umumiy natijani aniqlash uchun ikkala baholash qaydnomalaridagi ballarning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi. Agar bir mutaxassis tomonidan YOZISH moduli uchun berilgan ballar **o'tish ballidan past** bo'lsa, boshqa mutaxassis qo'ygan ball esa **o'tish ballidan yuqori** bo'lsa va ikkala baholash natijasining **o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi** o'tish ballidan, yani 12 balldan past bo'lsa **uchinchi baholash** (= 3-baholash) o'tkaziladi. Natija *Yozma nutq - natija* qaydnomasiga kiritiladi. *Yozma nutq - natija* qaydnomasi arifmetik jihatdan to'g'ri deb belgilanadi va mutaxassislardan biri tomonidan imzolanadi.

Imtihonning YOZMA NUTQ qismida jami 20 o'lchov birligini to'plash mumkin. Ular yaxlitlangach, 25 natija balliga aylantiriladi. Buning uchun ular 1,25 ga ko'paytiriladi.

§ 5 Imtihonning OG'ZAKI NUTQ qismini baholash

Imtihonning OG'ZAKI NUTQ qismining 1-3 bandlari ikkita imtihon oluvchi mutaxassis tomonidan alohida baholanadi. Baholash belgilangan baholash mezonlariga muvofiq amalga oshiriladi (*Namunaviy imtihon variantlari* ning *Imtihon oluvchining to'plami* qismiga qarang). Har bir mezon uchun faqat *Og'zaki nutq - natija* qaydnomasida ko'rsatilgan ballar belgilanadi; oraliq baholarga ruxsat berilmaydi.

Imtihonning OG'ZAKI NUTQ qismida maksimal 25 ball to'plash mumkin. Har bir mezon bo'yicha faqat *Og'zaki nutq - baholash* qaydnomasida ko'rsatilgan ballar belgilanadi.

Kirish suhbatini baholanmaydi.

Während der Prüfung oder direkt danach notiert jede/-r Bewertende seine/ihre Bewertungen auf dem *Bogen Sprechen Bewertung* und zeichnet diesen mit Bewerbernummer und Unterschrift.

Zur Ermittlung des Ergebnisses des Prüfungsteils SPRECHEN wird aus beiden Bewertungen das arithmetische Mittel gezogen und auf volle Punkte gerundet (bis 0,49 wird abgerundet, ab 0,5 wird aufgerundet).

Das Ergebnis des Prüfungsteils SPRECHEN wird auf dem *Bogen Sprechen – Ergebnis* festgehalten und als rechnerisch richtig gezeichnet. Alternativ können die Bewertungen der Prüfenden auch in eine digitale Bewertungsmaske eingegeben werden; unabhängig davon, ob eine papierbasierte oder digitale Prüfung gebucht wurde. Die Prüfenden und Bewertenden authentifizieren sich auf der Testplattform durch individuelle Login-Daten; daher entfällt die Notwendigkeit einer Unterschrift.

§ 6 Gesamtergebnis

6.1 Ermittlung der Gesamtpunktzahl

Zur Ermittlung der Gesamtpunktzahl werden die in den einzelnen Prüfungsteilen erreichten Ergebnispunkte addiert und auf volle Punkte gerundet.

6.2 Punkte und Prädikate

Die Prüfungsleistungen werden in Form von Punkten und Prädikaten dokumentiert. Es gelten folgende Punkte und Prädikate für die Gesamtprüfung:

Punkte	Prädikat
100–90	sehr gut
89–80	gut
79–70	befriedigend
69–60	ausreichend
59–0	nicht bestanden

Imtihan vaqtida yoki imtihan tugagach har bir baholovchi mutaxassis shu zahoti *Og'zaki nutq – baholash* qaydnomasiga o'z ballarini kiritadi va o'zining hos raqami va imzosi bilan tasdiqlaydi.

Imtihonning OG'ZAKI NUTQ qismi bo'yicha natijani aniqlash uchun ikkala qaydnomadan o'rtacha arifmetik qiymati olinadi va butun ballgacha yaxlitlanadi (0,49 gacha pastga, 0,5 dan boshlab yuqoriga qarab yaxlitlanadi). Imtihonning OG'ZAKI NUTQ qismining natijasi *Og'zaki nutq – natija* qaydnoma shakliga kiritiladi va hisobda to'g'ri deb rasmiylashtiriladi. Shuningdek, imtihan qog'ozda yoki raqamli shaklda topshirishidan qat'i nazar, imtihan oluvchining ballari raqamli qaydnomaga ham kiritilishi mumkin. Imtihan oluvchilar va baholovchilar shaxsiy kirish ma'lumotlari yordamida test platformasida autentifikatsiya qilinadi, shuning uchun hech qanday imzo talab qilinmaydi.

§ 6 Umumiy natija

6.1 Umumiy natijani hisoblash

Umumiy ballni hisoblash uchun imtihonning alohida modullaridan olingan ballar jamlanadi va to'liq ballga yaxlitlanadi.

6.2 Ballar ba baho

Imtihan natijalari ballar va baholar bilan rasmiylashtiriladi. Umumiy imtihan natijalari quyidagicha qayd etiladi:

Ballar	Baho
100–90	a'lo
89–80	yaxshi
79–70	qoniqarli
69–60	yetarli
59–0	qoniqsiz

6.3 Bestehen der Prüfung

Maximal können 100 Punkte erreicht werden, 75 Punkte im schriftlichen Teil und 25 Punkte im mündlichen Teil.

Die Prüfung ist bestanden, wenn insgesamt mindestens 60 Punkte (60 % der Maximalpunktzahl) erzielt und alle Prüfungsteile abgelegt wurden. Hiervon müssen mindestens 45 Punkte in der schriftlichen Prüfung und mindestens 15 Punkte in der mündlichen Prüfung erreicht werden. Andernfalls gilt die gesamte Prüfung als nicht bestanden.

§ 7 Wiederholung und Zertifizierung der Prüfung

Es gelten § 14 und § 15 der *Prüfungsordnung*.

In Ausnahmefällen und sofern es die organisatorischen Möglichkeiten am Prüfungszentrum erlauben, sind Teilwiederholungen möglich, d.h. die Wiederholung entweder der mündlichen Prüfung oder der gesamten schriftlichen Prüfung. Ein Anspruch auf Teilwiederholung seitens der Teilnehmenden besteht nicht. Teilwiederholungen sind innerhalb eines Jahres nur am selben Prüfungszentrum möglich, an dem die erste Prüfung durchgeführt wurde. Das Prüfungszentrum kann eine Bearbeitungsgebühr für die Teilwiederholung verlangen.

§ 8 Schlussbestimmungen

Diese *Durchführungsbestimmungen* treten am 1. September 2023 in Kraft und gelten erstmals für Prüfungsteilnehmende, deren Prüfung nach dem 1. September 2023 stattfindet.

Im Falle von sprachlichen Unstimmigkeiten zwischen den einzelnen Sprachversionen der *Durchführungsbestimmungen* ist die deutsche Fassung maßgeblich.

6.3 Imtihondan muvaffaqiyatli o'tish

Jami maksimal 100 ball to'plash mumkin: yozma qismda 75 ball va og'zaki qismda 25 ball.

Agar kamida 60 ball to'plangan bo'lsa (maksimal ballning 60%) va imtihonning barcha qismlari topshirilgan bo'lsa, imtihon o'tgan hisoblanadi.

Yozma imtihonda kamida 45 ball, og'zaki imtihonda esa kamida 15 ball to'plash kerak. Aks holda, butun imtihon qoniqarsiz topshirildi, deb hisoblanadi.

§ 7 Imtihonni qayta topshirish va sertifikat olish

Bu holatda *Imtihon o'tkazish tartibining* § 14 va § 15 bandlari amal qiladi.

Istisno hollarda va agar imtihon markazida tashkiliy imkoniyatlar mavjud bo'lsa, imtihonni qisman qayta topshirish mumkin, ya'ni yoki og'zaki imtihonni yoki butun yozma imtihonni. Imtihon topshiruvchilar qisman qayta topshirish huquqiga ega emaslar. Qisman qayta topshirish faqat birinchi imtihon o'tkazilgan imtihon markazida bir yil ichida mumkin. Qisman qayta topshirish uchun imtihon markazi to'lov olishi mumkin.

§ 8 Yakuniy qoidalar

Imtihon o'tkazish qoidalari 2023-yil 1-sentabrdan kuchga kiradi va 2023-yil 1-sentabrdan keyin o'tkaziladigan imtihonlarni topshiruvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Imtihon o'tkazish qoidalarining alohida til versiyalari o'rtasida til tafovuti yuzaga kelgan taqdirda, nemis tilidagi versiya ustunlik qiladi.

Legende zu Formatierungen:

VERSAL: Prüfungsnamen und Prüfungsteile (z. B. „Prüfungsteil SPRECHEN“)

kursiv: Dokumentenbezeichnungen, Eigennamen, Verweise (z. B. „Der Antwortbogen wird ...“)

ANHANG

Zusätzliche Regelungen zur Durchführung digitaler Deutschprüfungen

Digitale Deutschprüfungen werden in Präsenz an einem Laptop des Prüfungszentrums des Goethe-Instituts abgelegt. Abweichend oder zusätzlich zu den oben stehenden Regelungen gilt Folgendes:

1. Abweichend von 1.2 (Prüfungsmaterialien) gilt:

Sämtliches Prüfungsmaterial der Module/Prüfungsteile LESEN, HÖREN und SCHREIBEN wird den Prüfungsteilnehmenden mittels einer Testplattform digital vorgelegt und von diesen digital bearbeitet. Die Prüfungsteilnehmenden verfassen ihre Texte mit einer deutschen Tastatur. Das digitale Material entspricht inhaltlich der papierbasierten Prüfung. Die Übertragung auf Antwortbögen entfällt, da die Prüfungsteilnehmenden ihre Lösungen und ihre Texte direkt auf der Testplattform eingeben. Eine Änderung ihrer Lösungen und ihrer Texte ist so lange möglich, bis das jeweilige Modul bzw. bei nicht-modularen Prüfungen die schriftliche Prüfung abgegeben wurde bzw. die vorgegebene Prüfungszeit abgelaufen ist.

Die Teilnehmenden können am Anfang jedes Moduls bzw. bei nicht-modularen Prüfungen zu Beginn der schriftlichen Prüfung ein Tutorial mit Erklärungen zum Umgang mit der Testplattform ansehen. Die Prüfungszeit startet erst danach.

Die Texte zum Modul/Prüfungsteil HÖREN werden direkt durch die Testplattform über Kopfhörer ausgespielt.

Beim Modul/Prüfungsteil SPRECHEN erhalten die Prüfungsteilnehmenden die Aufgaben weiterhin auf Papier.

ILOVA

Nemis tilidan raqamli (digital) imtihanlarni o'tkazish uchun qo'shimcha qoidalar

Nemis tilidan raqamli (digital) imtihanlar Gyote-Institutning imtihan markazlaridan birida noutbukda shaxsan topshiriladi. Yuqoridagi qoidalariga kiritilgan quyidagi o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar amalda qo'llanadi:

1. 1.2 (Imtihan materiallari) dagi o'zgarishlar:

Imtihaning O'QISH, TINGLASH va YOZMA NUTQ modullari / qismlari uchun barcha imtihan materiallari imtihan topshiruvchilarga test platformasi orqali raqamli ko'rinishda taqdim etiladi va ular tomonidan raqamli tarzda ishlanadi. Imtihan topshiruvchilar o'z matnlarini nemis tili klaviaturasi yordamida yozadilar. Raqamli imtihan materiallarining mazmuni qog'oz shaklida o'tkaziladigan imtihan materiallari mazmuniga mos keladi. Javoblarni javob varaqaqlariga o'tkazishning hojati yo'q, chunki imtihan topshiruvchilar o'z yechimlari va matnlarini bevosita test platformasiga kiritedilar. Imtihan topshiruvchilar imtihaning tegishli moduli yoki modulli bo'lmagan imtihanlarda yozma imtihan topshirilmaguncha yoki imtihan vaqti tugaguniga qadar o'z javoblari va matnlarini o'zgartirishlari mumkin.

Imtihan topshiruvchilar har bir modulning yoki modulli bo'lmagan imtihanlarda yozma imtihan boshlanishidan avval, test platformasidan qanday foydalanishni tushuntiruvchi qo'llanmani ko'rib chiqishlari mumkin. Shundan keyingina imtihan vaqti boshlanadi.

TINGLASH moduli/imtihan qismi uchun matnlar quloqchinlar yordamida bevosita test platformasidan tinglanadi.

OG'ZAKI NUTQ moduli/imtihan qismida imtihan ishtirokchilari topshiriqlarni avvalgidek qog'oz shaklida oladilar.

2. Abweichend von § 4 (Bewertung) gilt:

Die Aufgaben mit vorgegebenen Antwortmöglichkeiten in den Modulen/Prüfungsteilen LESEN und HÖREN werden technisch automatisiert durch die Testplattform bewertet. Bei den Modulen/Prüfungsteilen SCHREIBEN und SPRECHEN werden die Bewertungen durch zwei voneinander unabhängig Prüfende/Bewertende direkt auf der Testplattform eingegeben. Die Bewertungskriterien entsprechen den Bewertungskriterien der papierbasierten Prüfung. Die Prüfenden und Bewertenden authentifizieren sich auf der Testplattform durch individuelle Login-Daten, daher entfällt die Notwendigkeit einer Unterschrift.

Zusätzliche Regelungen zur Durchführung von Online-Deutschprüfungen

Online-Deutschprüfungen werden unter bestimmten Voraussetzungen (vgl. zusätzliche Regelungen in den Anhängen der *Prüfungsordnung* und *Durchführungsbestimmungen*) ortsunabhängig an einem privaten Desktop-Computer oder Laptop abgelegt. Für Online-Deutschprüfungen gilt Folgendes:

1. Abweichend von 1.2 (Prüfungsmaterial) gilt:

Sämtliches Prüfungsmaterial der Module/Prüfungsteile LESEN, HÖREN und SCHREIBEN wird den Prüfungsteilnehmenden mittels einer Testplattform digital vorgelegt und von diesen digital bearbeitet. Das digitale Material entspricht inhaltlich der papierbasierten Prüfung. Die Übertragung auf Antwortbögen entfällt, da die Prüfungsteilnehmenden ihre Lösungen und ihre Texte direkt auf der Testplattform eingeben. Eine Änderung ihrer Lösungen und ihrer Texte ist so lange möglich, bis das jeweilige Modul bzw. bei nicht-modularen Prüfungen die schriftliche Prüfung abgegeben wurde bzw. die vorgegebene Prüfungszeit abgelaufen ist.

Die Teilnehmenden können am Anfang jedes Moduls bzw. bei nicht-modularen Prüfungen zu Beginn der schriftlichen Prüfung ein Tutorial mit Erklärungen zum Umgang mit der Testplattform ansehen. Die Prüfungszeit startet erst danach.

Die Texte zum Modul/Prüfungsteil HÖREN werden direkt durch die Testplattform über den Lautsprecher ausgespielt.

2. § 4 (Baholash) dagi o'zgarishlar:

O'QISH va TINGLASH modullari/imtihon qismlarida javob variantlari berilgan topshiriqlar texnik jihatdan avtomatlashtirilgan bo'lib, test platformasi tomonidan tekshiriladi. YOZMA NUTQ va OG'ZAKI NUTQ modullari/imtihon qismlarida baholar bir-biridan mustaqil ravishda ikkita imtihon oluvchi/ baholovchi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri test platformasiga kiritiladi. Raqamli (digital) imtihonning baholash mezonlari qog'oz imtihon uchun baholash mezonlari bilan bir xil. Imtihon oluvchilar va baholovchilar shaxsiy kirish ma'lumotlari yordamida test platformasida autentifikatsiya qilinadi, shuning uchun hech qanday imzo talab qilinmaydi.

Nemis tilidan onlayn imtihonlar o'tkazish bo'yicha qo'shimcha qoidalar

Muayyan sharoitlarda (*Imtihon topshirish tartibi* va *Imtihon o'tkazish qoidalarining* ilovalaridagi qo'shimcha qoidalarga qarang) onlayn nemis tili imtihonlari joylashuvidan qat'i nazar, shaxsiy stasionar kompyuter yoki noutbukda topshirilishi mumkin. Nemis tilidan onlayn imtihonlar uchun quyidagi qoidalar qo'llaniladi:

1. 1.2 (Imtihon materiallari) dagi o'zgarishlar:

O'QISH, TINGLASH va YOZMA NUTQ modullari/imtihon qismlarining barcha topshiriqlari imtihon ishtirokchilariga test platformasidan foydalangan holda raqamli ko'rinishda taqdim etiladi va ular tomonidan raqamli tarzda ishlanadi. Raqamli imtihon materiallarining mazmuni qog'ozda o'tkaziladigan imtihon mazmuniga mos keladi. Javoblarni javob varaqalariga o'tkazishning hojati yo'q, chunki imtihon topshiruvchilar o'z yechimlari va matnlarini bevosita test platformasiga kiritadilar. Imtihon topshiruvchilar imtihonning tegishli moduli yoki modulli bo'lmagan imtihonlarda yozma imtihon topshirilmaguncha yoki imtihon vaqti tugaguniga qadar o'z javoblari va matnlarini o'zgartirishlari mumkin.

Imtihon topshiruvchilar har bir modulning yoki modulli bo'lmagan imtihonlarda yozma imtihon boshlanishidan avval, test platformasidan qanday foydalanishni tushuntiruvchi qo'llanmani ko'rib chiqishlari mumkin. Shundan keyingina imtihon vaqti boshlanadi.

TINGLASH moduli/imtihon qismi uchun matnlar quloqchilar yordamida bevosita test platformasidan tinglanadi.

2. Zusätzlich zu 2.1 (Vorbereitung) gilt:

2.1 Die Prüfungsteilnehmenden verwenden einen Desktop-Computer oder Laptop mit Netzbetrieb, stabiler Internetverbindung, integriertem Mikrofon, integriertem/externem Lautsprecher und integrierter/externer Webcam.

2.2 Die Tastatursprache ist auf Deutsch eingestellt.

2.3 Die Prüfungsteilnehmenden stellen die Erfüllung der **technischen Voraussetzungen**, die im Folgenden sowie im Buchungsprozess aufgeführt werden, für die Prüfungsdurchführung eigenverantwortlich sicher:

Technische Voraussetzungen:

Gerät:

- Desktop-, Laptop-Computer oder Chromebook (Hinweis: Chromebooks können für die Prüfung verwendet werden, aber der technische Support ist nur eingeschränkt möglich)
- Tablets und andere mobile Endgeräte sind nicht zulässig

Monitor:

- ein Monitor oder Bildschirm
- mehrere Monitore oder Doppelbildschirme sind nicht zulässig

Lautsprecher/Mikrofon:

- interner oder externer Lautsprecher sowie ein im Computer oder der Webkamera integriertes Mikrofon
- Kopfhörer mit oder ohne eingebautes Mikrofon oder In-Ear-Kopfhörer sind nicht zulässig.

Kamera:

- Integrierte Kamera oder eine separate Webkamera
Hinweis: Die Kamera muss so bewegt werden können, dass die Prüfungsaufsicht einen 360°-Blick auf den Raum, einschließlich der Tischoberfläche und Tischunterseite, erhält. Wenn die Kamera nicht 360° beweglich ist, muss ein Handspiegel griffbereit sein.

2. 2.1. (Tayyorgarlik) ga qo'shimchalar:

2.1. Imtihan ishtirokchilari tarmoqqa ulangan, barqaror internet mavjud, o'rnatilgan mikrofon, o'rnatilgan/tashqi ovoz kuchaytiruvchi vosita va o'rnatilgan/tashqi veb-kameraga ega shaxsiy statsionar kompyuter yoki noutbukdan foydalanadilar.

2.2. Klaviaturada nemis tili o'rnatilgan.

2.3 Imtihan topshiruvchilar quyida, hamda, imtihondagi o'z ishtiroklarini bron qilish jarayonida sanab o'tilgan **texnik talablar**ni bajarishga shaxsan ma'suldirlar.

Texnik talablar:

Texnik vositalar:

- Statsionar kompyuter, noutbuk yoki Chromebook (Eslatma: Chromebook'lardan imtihan topshirish uchun foydalanish mumkin, ammo ularga texnik yordam ko'rsatish cheklangan).
- Planshetlar va boshqa mobil qurilmalardan foydalanish mumkin emas.

Monitor:

- kompyuter monitori yoki ekran
- bir nechta kompyuter monitorlaridan yoki ikkita ekran-dan foydalanishga ruxsat berilmaydi

Ovoz kuchaytiruvchi vosita/mikrofon

- ichki yoki tashqi ovoz kuchaytiruvchi vosita, hamda, kompyuter yoki veb-kameraga o'rnatilgan mikrofon
- o'rnatilgan mikrofonli yoki mikrofon-siz quloqchinlar (naushniklar) yoki minigarniturali simsiz quloqchin-lardan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

Kamera:

- O'rnatilgan kamera yoki alohida veb-kamera
Eslatma: Kamera harakatlanuvchi bo'lishi va imtihan nazoratchisi 360° da xonani, jumladan, stol yuzasi va uning pastki qismini ko'ra olishi kerak. Agar kamera 360° harakatlana olmasa, kichik ko'zgu tayyorlab qo'yilishi kerak.

Browser:

- Google-Chrome™-Browser (Popup-Blocker muss deaktiviert werden)
- Browsererweiterungen müssen während der Prüfung deaktiviert sein

Internetverbindung:

- Erforderlich: Upload- und Download-Geschwindigkeit von 5 Mbit/s
- Empfehlung: 10 Mbit/s

2.4 Unmittelbar vor der Prüfungsdurchführung müssen alle Computer-Anwendungen und Programme geschlossen sein, die nicht für die Prüfung relevant sind.

3. Abweichend von 2.2 (Ablauf) gilt:

3.1 Die Prüfungsteilnehmenden sorgen dafür, dass sie die Prüfung in einem störungsfreien Raum mit adäquaten Licht- und Sitzverhältnissen ablegen. Räume mit mehr als einer Tür oder mit großen Glasfronten sind nicht erlaubt.

3.2 Während der Prüfung befinden sich außer dem/der Prüfungsteilnehmenden keine weiteren Personen oder Haustiere im Raum, Tür und Fenster werden geschlossen.

3.3 Zur Sicherstellung, dass während der Prüfung keine weiteren Personen den Raum betreten, müssen Arbeitsplatz und Webcam so ausgerichtet werden, dass der/die Prüfungsteilnehmende und die Tür permanent im Bild sind.

3.4 Der Prüfungsplatz wird so eingerichtet, dass die Arbeitsfläche leer ist und sich außer dem Desktop-Computer mit Monitor oder Laptop, Lichtbildausweis, ggf. Tastatur und Lautsprecher keine weiteren Gegenstände auf dem Tisch befinden. Wenn der Arbeitstisch über Schubladen verfügt, müssen diese vor der Prüfung leergeräumt werden. Hierzu erfolgt eine Kontrolle.

3.5 Zur Überprüfung der Einhaltung der Prüfungsbedingungen führt die Prüfungsaufsicht zusammen mit dem/der Prüfungsteilnehmenden eine Überprüfung des Raums per Webcam durch. Wenn eine im Laptop integrierte Webcam genutzt wird, müssen die Prüfungsteilnehmenden zusätzlich einen Handspiegel (Durchmesser mind. 10 cm) bereithalten, damit auch der Laptop selbst überprüft werden kann (siehe 2.3).

Brauzer:

- Google Chrome™ brauzeri (qalqib chiquvchi oyna blokerini o'chirib qo'yish kerak)
- Sinov paytida brauzer kengaytmalari o'chirib qo'yilishi kerak

Internetga ulanish:

- Kerak bo'ladi: yuklab olish va yuklash tezligi 5 Mbps dan baland
- Tavsiya: 10 Mbit/s

2.4 Imtihan oldidan imtihonga aloqador bo'lmagan barcha kompyuter ilovalari va dasturlari yopilishi kerak.

3. 2.2 (Imtihan jarayoni)dagi o'zgarishlar:

3.1. Imtihan topshiruvchilar imtihonni hech kim halaqit bermaydigan, yorug' va o'tirish uchun qulay muhitda topshirishlariga ishonch hosil qilishlari kerak. Bir nechta eshikli yoki katta derazli xonalarga ruxsat berilmaydi.

3.2. Imtihan vaqtida xonada imtihan topshiruvchidan boshqa hech qanday shaxs yoki uy hayvonlari yo'q, eshik va derazalar esa yopiq holatda bo'lishi kerak.

3.3 Imtihan vaqtida ruxsat etilmagan shaxslar xonaga kirmasligini ta'minlash uchun ish joyi va veb-kamera imtihan topshiruvchi va eshik doimiy ravishda ko'rinadigan tarzda joylashtirilishi kerak.

3.4 Imtihan topshiruvchining stoli ustida monitorli statsionar kompyuter yoki noutbuk, klaviatura va ovoz kuchaytiruvchi vosita, shuningdek, shaxsni tasdiqlovchi foto suratli guvohnomadan boshqa obyektlar bo'lmasligi kerak. Agar stolda tortmalar bo'lsa, ular imtihondan oldin bo'shatilishi kerak. Tortmalar bo'shligi imtihondan oldin tekshiriladi.

3.5 Imtihonga qo'yiladigan talablarga muvofiqqligini tekshirish uchun imtihan nazoratchisi imtihan topshiruvchi bilan birgalikda veb-kamera orqali xonani tekshiradi. Agar noutbukga o'rnatilgan veb-kamera ishlatilsa, noutbukning o'zini ham tekshirish uchun imtihan topshiruvchining qo'lida kichikroq hajmdagi ko'zgu (diametri kamida 10 sm) bo'lishi kerak (2.3-bandga qarang).

3.6 Der/Die Prüfungsteilnehmende muss während der ganzen Prüfung erkennbar sein. Das Gesicht und die Ohren des/der Prüfungsteilnehmenden müssen während der gesamten Prüfung sichtbar sein und dürfen nicht verdeckt werden.

3.7 Smartwatches, analoge Uhren, Schmuckstücke im Gesichtsbereich, Haarschmuck sowie gesichtsnahe Accessoires, wie z.B. Tücher, Schals, Krawatten, dürfen während der Prüfung nicht getragen werden, um zu gewährleisten, dass keine unerlaubten technischen Hilfsmittel benutzt werden.

3.8 Mobiltelefone und weitere mobile Endgeräte müssen nachweislich ausgeschaltet und außerhalb der Reichweite des/der Prüfungsteilnehmenden deponiert werden.

3.9 Prüfungsteilnehmende verpflichten sich, die vorbereitenden Schritte zur Prüfungsdurchführung sowie die Hinweise der Prüfungsaufsicht zu beachten und Anweisungen umzusetzen.

3.10 Der schriftliche und mündliche Teil der Online-Deutschprüfung findet jeweils als Einzelprüfung statt. Die zeitliche Organisation der Prüfung erfolgt gemäß 1.4.: Falls während der schriftlichen Prüfung ein Toilettengang erforderlich ist, wird der Zeitplan beibehalten und die Prüfungszeit nicht verlängert.

4. Abweichend von § 4 und § 5 (Bewertung) gilt:

Die Aufgaben mit vorgegebenen Antwortmöglichkeiten in den Modulen/Prüfungsteilen LESEN und HÖREN werden technisch automatisiert durch die Testplattform bewertet. Bei den Modulen/Prüfungsteilen SCHREIBEN und SPRECHEN werden die Bewertungen durch zwei voneinander unabhängig Prüfende/Bewertende direkt auf der Testplattform eingegeben. Die Bewertungskriterien entsprechen den Bewertungskriterien der papierbasierten Prüfung (siehe dazu § 4 und § 5). Die Prüfenden und Bewertenden authentifizieren sich auf der Testplattform durch individuelle Login-Daten, daher entfällt die Notwendigkeit einer Unterschrift.

3.6 Imtihan topshiruvchi imtihan ohirigacha nazoratchilar ko'z o'ngida bo'lishi kerak. Imtihan topshiruvchining yuzi va quloqlari imtihan davomida doimiy ko'rinib turishi va yopilmasligi kerak.

3.7 Imtihan vaqtida ruxsat etilmagan texnik vositalardan foydalanishning oldini olish uchun aqlli soatlar, analog soatlar, yuz taqinchoqlari, soch taqinchoqlari va ro'mol, sharf, bo'yinbog' kabi yuz qismiga yaqin joylashgan aksessuarlar taqish taqiqlanadi.

3.8 Mobil telefonlar va boshqa mobil qurilmalar imtihan oluvchi nazoratida o'chirilishi va imtihan topshiruvchining qo'li yetmaydigan joyda saqlanishi kerak.

3.9 Imtihan topshiruvchilar imtihonga tayyorgarlik choratadbirlariga, shuningdek imtihan nazoratchisining ko'rsatmalariga rioya qilish va ularni bajarish majburiyatini oladilar.

3.10 Nemis tilidan onlayn imtihonning yozma va og'zaki qismlari alohida imtihan sifatida o'tkaziladi. Imtihonni tashkil etish 1.4-bandga muvofiq amalga oshiriladi: Agar yozma imtihan paytida hojatxonaga borish kerak bo'lsa, u holda vaqt rejasi o'zgar olmaydi va imtihan vaqti uzaytirilmaydi.

4. § 4 va § 5 (Baholash) dagi o'zgarishlar:

O'QISH va TINGLASH modullari/imtihan qismlarida javob variantlari berilgan topshiriqlar, test platformasi tomonidan texnik jihatdan avtomatlashtirilgan tarzda baholanadi. YOZMA NUTQ va OG'ZAKI NUTQ modullari/imtihan qismlarida baholar to'g'ridan-to'g'ri test platformasiga ikkita mustaqil imtihan oluvchi va baholovchi mutaxassis tomonidan kiritiladi. Baholash mezonlari qog'oz shaklida o'tkaziladigan imtihonining baholash mezonlariga mos keladi (4-band va 5-bandlarga qarang). Imtihan oluvchilar va baholovchilar shaxsiy kirish ma'lumotlari yordamida test platformasida autentifikatsiya qilinadi, shuning uchun hech qanday imzo talab qilinmaydi.